

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

---

**IMOMQULOVA MUSLIMA NORKULOVNA**

**TALABALARDA AXLOQIY-MADANIY MUNOSABATNI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (rus tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**Chirchiq-2023**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical  
sciences**

**Imomqulova Muslima Norkulovna**

Talabalarda axloqiy - madaniy munosabatni rivojlantirish metodikasi..... 3

**Имомкулова Муслима Норкуловна**

Методика развития нравственно-культурного отношения у студентов ..... 23

**Imomkulova Muslima Norkulovna**

Methodology for the development of moral and cultural attitudes in students... 45

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of publications works..... 49

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

---

**IMOMQULOVA MUSLIMA NORKULOVNA**

**TALABALARDA AXLOQIY-MADANIY MUNOSABATNI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (rus tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2020.4.PhD/Ped1956 raqam bilan ruyxatga olingan.**

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([cspi.uz/ilmiy-kengash](http://cspi.uz/ilmiy-kengash)) va «Ziyonet» axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Botirova Shaxlo Isomiddinovna**  
pedagogika fanlari doktori , professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Nurmanov Abdunazar Toshbaevich.**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Umurova Guzal Xatamovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Urganch davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «\_\_\_\_»\_\_\_\_kuni soat\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy). Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: chspikengash@umail.uz.).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «\_\_\_\_»\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2023 yil «\_\_\_\_»\_\_\_\_dagi\_\_\_\_raqamli reestr bayonnomasi)

**U.N. Xodjamqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., dotsent

**F.T. Rajabov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi, g.f..f.d. (PhD), dotsent

**B.Boymetov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
rais o‘ribbosari, p.f.n., professor

## **Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahon ta’lim tizimida globallashuv jarayonlari chuqurlashayotgan bugungi sharoitda ta’lim oluvchilarni destruktiv g‘oyalardan himoya qilish, ularga sifatli ta’lim olish uchun pedagogik shart-sharoitlar yaratib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon miyosida insonning hayotiy ustuvorliklari o‘zgarib, umuminsoniy qadriyatlarni ommaviy madaniyatga xos bo‘lgan halokatli qadriyatlар to‘plami bilan almashtirish tendensiyasi kuzatilmоqda. Yoshlarning axloqiy madaniyati darajasining pasayishi va deviant xulq-atvor shakllarining namoyon bo‘lishi (jinoyatchilik, terrorizm, etnik nizolar, alkogolizm, giyohvandlik va boshqalar) - bugungi kunning ushbu haqiqatlari eng muhim vazifani- yosh avlodning axloqiy madaniyatini tarbiyalashni dolzarblashtirmoqda. O‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sharoitlarda zamonaviy jamiyatlar uchun axloqning faol tashuvchisi va targ‘botchisi sifatida maxsus tayyorlangan mutaxassislar ahamiyati ortib bormoqda.

Dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarida talaba-yoshlarning hayotda ijobiy va salbiy xulq-atvor shakllarini o‘zlashtirishiga, umuminsoniy qadriyatlarni, madaniy an’analarni, insoniy munosabatlarni qabul qilishiga yoki qabul qilmasligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, talabalarning axloqiy madaniyatiga turli salbiy ta’sirlarning profilaktik texnologiyalarini hamda bo‘lajak mutaxassislarda axloqiy madaniyat fazilatlarini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir.

Respublikamizda oliy ta’lim sohasini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishi sifatida o‘qitish jarayoniga interaktiv dasturiy vositalarni keng joriy etish, «Kelajak universiteti» sifatida tayyorlanayotgan kadrlarning axloqiy madaniyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmоqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish» muhim vazifa sifatida belgilandi. Mazkur vazifalar nuqtai nazaridan zamonaviy yondashuvlar asosida mashg‘ulotlar jarayonida talabalarda axloqiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirish mazmuni va amaliy-texnologik tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi<sup>1</sup>, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» gi, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagи «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni. - O‘zbekiston Respublikasi qонун hujjatlari to‘plami, 2017 yil, 6-сон, м. 70.

«O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Farmonlari, 2019 yil 3 maydag'i PQ-4307-son «Ma’naviy-ma’rifiy ishlар samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi, 2021 yil 26 martdag'i PQ-5040-son «Ma’naviy-ma’rifiy ishlар tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-son «Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni rivojlanish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz», «Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz», O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning «O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura», «Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch» kabi asarlari tadqiqot uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Respublikamiz olimlaridan N.Azimova, N.Achilov, B.Djuraeva, M.Kaxxarova, Sh.Majitova, R.Mamatqulova, G.Maxmutova, Yu.Maxkamova, O.Musurmonova, S.Nishonova, N.Norqulova, A.Nurmanov, S.Norboeva Sh.Olimov, D.Ro‘zieva, Z.Salieva, H.B.Boboev, Z.M.Islomov, A.Saidov, D.Himmatalievlarining tadqiqotlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, talabalarda ma’rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirish, pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik madaniyatni shakllantirish, jamiyatda ma’naviy-axloqiy muhit barqarorligini ta’minalash, «Pedagogika» kursi misolida bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini yaxlit rivojlantirish, milliy ma’naviy meros asosida universitet talabalarida xulq-odob fazilatlarini tarbiyalash, talabalarmi ma’naviy shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini, ma’naviy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash, talabalarmi shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish masalalari yoritib berilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi mamlakatlari olimlaridan N.N.Lebedeva, V.A.Medvedev, Ye.V.Agranovskaya, S.S.Alekseev, G.N.Vasin, Ye.V.Bichkova, A.P.Semitko, V.P.Fedorin, A.S.Nikulin kabilarning shaxs umumiyligi madaniyatini shakllantirish masalalari yuzasidan olib borgan ilmiy tadqiqotlarining natijalari boshqalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda o‘z ifodasini topgan.

Xorijlik olimlardan K.Anderson, M.Antoni, N.Ault, V.Lesniak, D.Tate, P.Govard kabilarning ilmiy ishlarida ma’naviy shakllanish istiqbollari, butun hayot davomida uzluksiz ma’naviy rivojlanish tizimi, ma’naviy shakllanishning psixologik va integrativ modeli tadqiq etilgan.

Biroq ushbu ilmiy ishlarda mashg‘ulotlar jarayonida talabalarda axloqiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirishning mohiyati, talabalarda axloqiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, axloqiy-madaniy munosabatni rivojlantirishning tuzilmali modeli, pedagogik-psixologik fanlar mazmunini ma’naviy-axloqiy tavsifdagi o‘quv materiallari bilan boyitish imkoniyatlari, axloqiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirish omillaridan biri sifatida muloqotning zamonaviy texnologiya va texnikalari imkoniyatlarini safarbar etish masalalari alohida tadqiq etilmagan. Ana shunday zarurat talabalarning axloqiy madaniyatini rivojlantirish metodikasining ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanish olib borishni taqozo etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universitetida Yevropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturi doirasida 2020-2021 yillar davomida amalga oshirilgan 574099-EPP-1-2016-1-IT-EPPKA2-CBHE-SP raqamli “Oliy ta’lim sohasida potensialni rivojlantirish yo‘nalishidagi PAWER – Hududlararo mobillikni yo‘lga qo‘yish va bu borada dolzarblik, sifat hamda tenglikni ta’minalash” mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** talabalarda axloqiy-madaniy munosabatni rivojlantirish metodikasining ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-pedagogik, falsafiy, psixologik manbalarni tahlil qilish orqali muammoning dolzarb pedagogik ahamiyatga ega ekanligini asoslash;

talabalarda axloqiy-madaniy munosabatni rivojlantirish metodikasining pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish;

talabalarda axloqiy-madaniy munosabatni rivojlantirishning metodik modelini ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiq etish texnologiyalarini takomillashtirish;

talabalarda axloqiy-madaniy munosabatni rivojlantirishning samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob’yekti** sifatida mashg‘ulotlar jarayonida talabalarda axloqiy-madaniy munosabatni rivojlantirish metodikasining ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariiga Andijon davlat universitetining Pedagogika instituti, Qoraqalpoq davlat pedagogika instituti, Termiz davlat universitetining Pedagogika institutlaridan 300 nafar talaba jalb qilindi.

**Tadqiqotning predmetini** mashg‘ulotlar jarayonida talabalarda axloqiy-madaniy munosabatni rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari** mavzuga oid falsafiy, psixologik-pedagogik, metodik adabiyotlar, DTS, TS, malaka talablari, o‘quv rejalarini va dasturlarini qiyosiy o‘rganish hamda tahlil qilish, modellashtirish, loyihalashtirish, test, so‘rovnama, suhbat, kuzatish, tajriba-sinov va matematik-statistik qayta ishslash metodlari yordamida tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

talabalarda axloqiy-madaniy munosabatni rivojlantirish metodikasi axloqiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirishga undovchi g‘oyalarni turkumlashtirish, talabalarning ma’naviy fazilatlarini rivojlantiruvchi innovatsion texnologiyalar, metod va vositalar imkoniyatlarini integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda axloqiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari talabalar ongiga umuminsoniy hamda milliy ma’naviy qadriyatlarini, odob-axloq qoidalarini va urf-odatlarni maqsadli singdirib borish orqali rivojlantirilgan;

talabalarda axloqiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirish modeling amaliy komponenti milliy axloqiy-madaniy qadriyatlar (etnik qadriyatlar, inson ideali va munosib hayot haqidagi g‘oyalarni)ning axloqiy munosabatlarni rivojlantirishdagi roli hamda komponentlarini integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

talabalarda axloqiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari (OTM o‘quv-tarbiya jarayonida ma’naviy-axloqiy muhitning o‘rnatilganligi, talabalarning bilim, kechinma va xulq-atvorining zamonaviy jamiyat ideallariga mosligi, “o‘qituvchi-talaba”, “talaba - o‘qituvchi”, “talaba-talaba” tizimlarida dialogik va polilogik muloqot jarayonida ma’naviy-axloqiy axborotlardan refleksiv-perseptiv darajada almashinishning yo‘lga qo‘ylganligi, talabaning ma’naviy-axloqiy ehtiyojlarining inobatga olinganligi, ma’naviy-axloqiy munosabatlarning shaxs uchun ahamiyatli qadriyat sifatida uni anglash va his etish orqali interiorizatsiyalanganligi)ni aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quydagilardan iborat:

talabalarda axloqiy-madaniy munosabatni rivojlantirishda muammoga nisbatan falsafiy, metodologik, metodik, pedagogik va psixologik yondashuvlar ahamiyati asoslangan hamda milliy tajribadan foydalanilgan holda pedagogik shart-sharoitlar yaratilgan;

talabalarda axloqiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirish texnologiyalarini amaliyotga joriy etish borasida oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar, tyutorlari va talabalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalar hamda uning shakl, metod va vositalari ishlab chiqilgan.

“Mashg‘ulotlar jarayonida talabalarda axloqiy-madaniy munosabatni rivojlantirishning metodik asoslari” nomli elektron o‘quv qo‘llanma amaliyotga joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** xorijiy hamda OAK ro‘yxatidagi ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy konferensiya materiallari, ilmiy-metodik tavsiyalarning amaliyotda tatbiq etilishi; talabalarda axloqiy-madaniy munosabatni rivojlantirishga oid o‘quv materiallari nashr etilganligi va ta’lim jarayoniga joriy qilinganligi; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi tadqiqot metodlarining qo‘llanilganligi; tajriba-sinov ishlari ishtirokchilarini tanlashdagi reprezentativlik; olingan natijalarining matematik-statistik tahlili va vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan va asoslangan ilmiy g‘oyalarni va metodik tavsiyalar talabalarda

axloqiy-madaniy munosabatni rivojlantirishni tashkiliy-metodik tuzilma asosida samarali yo‘lga qo‘yishga, shuningdek, tadqiqotning ayrim natijalari talabalarning pedagogik axloqiy madaniyatini takomillashtirish bo‘yicha o‘quv dasturlari, o‘quv-metodik qo‘llanmalar, elektron va boshqa vositalarning metodik apparatini takomillashtirishga imkon beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalari talabalarda axloqiy-madaniy munosabatni rivojlantirish, bilim, ko‘nikma va malakalar asoslarini shakllantirish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, dissertatsiya materiallari OTM talabalari, qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari tinglovchilar tomonidan nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish jarayonida tadbiq etilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi.** Talabalarda axloqiy-madaniy munosabatni rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

talabalarda axloqiy-madaniy munosabatni rivojlantirish metodikasi axloqiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirishga undovchi g‘oyalarni turkumlashtirish, talabalarning ma’naviy fazilatlarini rivojlantiruvchi innovatsion texnologiyalar, metod va vositalar imkoniyatlarini integratsiyalash hamda auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda axloqiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari talabalar ongiga umuminsoniy hamda milliy ma’naviy qadriyatlarni, odob-axloq qoidalarini va urf-odatlarni maqsadli singdirib borish orqali rivojlantirilgan yangilikdan A1-XT-0-92997 raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘nligi asosida ma“naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi amaliy fundamental loyihasini amalga oshirishda hamda 2017-2020 yillarda bajarilgan F3-2016-09081165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘bekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2022 yil 23 noyabrdagi 394-sun ma’lumotnomasi). Natijada talabalarda axloqiy-madaniy munosabatni samarali yo‘lga qo‘yish, shuningdek, talabalarning axloqiy - madaniyatini rivojlantirishni tizimli tashkil qilishga, ko‘nikmalar shakllanishini nazorat qilish, funksiyasini aniq belgilashga hamda ijrosini to‘liq ta’minlashga imkon bergen;

talabalarda axloqiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirish modelining amaliy komponenti milliy axloqiy-madaniy qadriyatlar (etnik qadriyatlar, inson ideali va munosib hayot haqidagi g‘oyalar)ning axloqiy munosabatlarni rivojlantirishdagi roli hamda komponentlarini integratsiyalash asosida takomillashtirilganligiga oid xulosalardan A1-XT-0-92997 raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘nligi asosida ma“naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi amaliy fundamental loyihasini amalga oshirishda hamda 2017-2020 yillarda bajarilgan F3-2016-09081165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘bekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2022 yil 23 noyabrdagi 394-sun ma’lumotnomasi).

Natijada mazkur qoidalarning 11-moddasiga o‘zgartirishlar kiritish taklifidan foydalanilgan;

talabalarda axloqiy-madaniy munosabatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari (OTM o‘quv-tarbiya jarayonida ma’naviy-axloqiy muhitning o‘rnatilganligi, talabalarning bilim, kechinma va xulq-atvorining zamonaviy jamiyat ideallariga mosligi, “o‘qituvchi-talaba”, “talaba -o‘qituvchi”, “talaba-talaba” tizimlarida dialogik va polilogik muloqot jarayonida ma’naviy-axloqiy axborotlardan refleksiv-perseptiv darajada almashinishing yo‘lga qo‘yilganligi, talabaning ma’naviy-axloqiy ehtiyojlarining inobatga olinganligi, ma’naviy-axloqiy munosabatlarning shaxs uchun ahamiyatli qadriyat sifatida uni anglash va his etish orqali interiorizatsiyalanganligi)ni aniqlashtirishga oid xulosalar O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022 yil 24 maydagi 04-36-729-son ma’lumotnomasi). Natija va xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradio kanali DM “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muhaririyati tomonidan eshittirishlar senariyasida foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xorijiy va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy-uslubiy, shu jumladan 1 ta o‘quv-metodik qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr ettirilgan. Shuningdek, elektron o‘quv dasturlari uchun Davlat intellektual mulk agentligidan 1 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 134 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob’ekti, predmeti aniqlangan, ishning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natjalarning ishonchliligi, nazariy hamda amaliy ahamiyati, natjalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar, shuningdek, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Mashg‘ulotlar jarayonida talabalarda axloqiy- madaniy munosabatni rivojlantirishning nazariy asoslari**» deb nomlanuvchi birinchi bobida talabalarda axloqiy-madaniy munosabatni rivojlantirish pedagogik muammo ekanligi, talabalarda axloqiy-madaniy munosabatni rivojlantirish omillari va pedagogik asoslari, talabalarda axloqiy-madaniy munosabatni rivojlantirishning amaldagi holati va uni takomillashtirish yo‘llari, ishlab chiqilgan dasturlarning

imkoniyatlari, natijalari yuzasidan O‘zbekiston, MDH mamlakatlari va xorijda tadqiqot olib borgan olimlar ishlari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvar 2022 yil PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida “Harakatlar strategiyasidan - taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yetta ustuvor yo‘nalishdan biri ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash va sohani yangi bosqichga olib chiqishdir. “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida ham ma’naviy-axloqiy munosabatlarga katta e’tibor qaratilgan.

O‘tmishda yashab ijod etgan allomalarimiz Farg‘oniy, Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Buxoriy, Termiziyy, Marg‘iloniy, Motrudiyy, Zamahshariy va boshqalar nafaqat ilm cho‘qqilarini egallabgina qolmay, odob-axloqni keng targ‘ib etganlar, o‘rgatganlar, shogirdlarni tarbiyalaganlar.

Turkiston ma’rifatchilik maktabi boy o‘tmish va ulkan merosga ega. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o‘g‘li, Ashurali Zohiriyy, Saidrasul Saidaziziy, Ishoqxon Ibrat, Ahmad Donish va boshqalar mamlakatni, xalqni milliy zulm va ma’rifiy qoloqlikdan xalos etishning yagona yo‘li ma’rifat (ilm, odob-axloq)da deb bildilar.

**“Ma’naviyat”** tushunchasi va uning tamoyillariga o‘ziga xos izoh va ta’riflar berib kelinmoqda. Bunga sabab, **«Ma’naviyat»** tushunchasi keng ma’noda jamiyat hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etgan ijtimoiy-ma’naviy hodisa ekanligidadir. Aslida ma’naviyat – insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan eng baquvvat ma’naviy-ruhiy omil hisoblanadi. Ma’naviyat tarkibiy qismlaridan eng muhimi – **axloq va odobdir**.

Axloq arabchadan olingan bo‘lib, xulq odob, atvor, fe’l degan ma’nolarni anglatadi. Rus tilida ishlatiladigan «moral» so‘zi «mocheya» so‘zidan olingan bo‘lib, u ham ahloq ma’nosini bildiradi.

Yunoncha «ethos» so‘zi odob, rasm-rusum, fe’l (xarakter) ma’nolarini bildiradi. Ushbu tushuncha Arastu (e.o.384-322 yy) tomonidan axloqning sinonimi sifatida ishlatilgan.

«Odob» (arabcha «adab» so‘zining ko‘pligi) xulq-atvor, yurish-turish, madaniyatning tashqi va ichki jihatlarini ifodalaydigan tushuncha. U kishilarning hatti-harakatida, o‘zaro munosabatida (oila, mehnat jamoasi va h.k.) namoyon bo‘ladi.

Madaniyat lotincha «kultura» – «ishlov berish», «parvarishlamoq», o‘zbek tilida arab tilidan olingan «madaniyat» (madinalik, shaharlik, ta’lim-tarbiya ko‘rgan) ma’nosini anglatib, insonning faol o‘zgartiruvchilik faoliyati bilan bog‘liqlikni ifodalaydi.

A. Shveyserning fikricha, madaniyatning mohiyati ikki xil, u aqlning tabiat kuchlari ustidan hukmronligidan hamda aqlning bashariy ishonch-e’tiqod va o‘y-fikr ustidan hukmronligidan tarkib topadi. D.Bell madaniyat deganda «Ekspressiv simvolizm va ifodalik saltanati» ni tushunadi. L.G.Ionin ta’rifiga ko‘ra, «madaniyat –

insoniyat insonni hayvondan farqlaydigan narsa. Madaniyat – insoniyat jamiyatining tavsifi» dir.

IX-XI asrlar esa islom falsafasining rivojlanish davri bo‘ldi, deyish mumkin. Bu sohada ham Markaziy osiyolik allomalarning xizmatlari ulkan ekanini e’tirof etish zarur. Jumladan, Sharqda «Muallimi soniy» («Ikkinch muallim») nomini olgan Abu Nasr Forobiy (873-950) o‘zining «Fozil odamlar shahri» asarida ideal jamiyat kishilarining qanday fazilatlarga ega bo‘lishi lozimligi haqidagi g‘oyalarni tizimli asoslab bergen. Yunon falsafasini mukammal o‘rganib, unga monand ravishda islom falsafasini rivojlantirgan Abu Ali ibn Sino (980-1037) tabiiy fanlar bo‘yicha ham jahon ilmi xazinasiga o‘zining bebaho hissasini qo‘shtan.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o‘zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mineralogiya», «Saydana», «Qonuni Mas’udiy» kabi asarlari orqali ijtimoiy-gumanitar fanlar va tabiatshunoslik ilmlari rivojini yangi, yuqoriq bosqichga ko‘tardi, o‘z davriga qadar yashab o‘tgan olimlarning asarlarida mavjud bo‘lgan qimmatli ma’lumotlarning kelajak avlodlarga yetkazilishiga xizmat qildi.

Axloq - o‘zgaruvchan murakkab ijtimoiy xodisa. Axloqning mohiyati va tabiatini tushunish uchun uning tarkibiy tuzilishi, shakllanishi hamda qaror topishi qonuniyatlarini bilmox lozim. Axloq kishi va jamiyat o‘rtasidagi ob’ektiv o‘zaro bog‘lanishning ma’naviy ifodasi, umumiyligi va individual manfaatlarni muvofiqtirish zaruratining namoyon bo‘lishidir. Shuningdek, u shaxs bilan jamiyat o‘rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlarni bartaraf etishning asosiy shakllaridan biridir. Axloqni huquq singari ijtimoiy qonun-qoidalarga ham, sub’ektiv ko‘rsatmalarga ham kiritib bo‘lmaydi, chunki axloq individuallikdan ijtimoiylikning qaror topishi usullaridan biridir. Shu sababli axloqni faqat axloqiy ongdangina iborat deb qarab bo‘lmaydi. U axloqiy ong, axloqiy amaliyot, axloqiy munosabatlardan iborat bo‘lgan, mantiqan mukammal shakliy birlikka ega. Bu elementlarni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi, ular o‘zaro bog‘liq, ularni nazariy jihatdangina ajratib olish mumkin, chunki ijtimoiy hayotda sof axloqiy hodisalar yo‘q. Shuningdek, axloqning barcha elementlari bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lsada, ular nisbatan mustaqillidir. Axloq sohasida, uning tarkibiy tuzilishida eng muhim element axloqiy ongdir.

Axloqiy ong axloqiy talablarni, me’yorlarni, qoidalarni,adolat haqidagi tasavvurlarni shakllantiradigan qarashlar, g‘oyalar, fikrlar, nazariyalardir. Insonning har qanday hatti-harakatlari ong orqali bajariladi, ammo jamiyat ularni saralab, manfaatdor bo‘lganlarinigina yuzaga chiqaradi. Axloqiy ongning ijtimoiy ahamiyati ham xuddi ana shundadir.

Axloqiy sifatlar haqidagi tushunchalar boshqa jamiyat hodisalari kabi tarix davomida o‘zgarib, rivojlanib, sayqallanib boradi. Masalan, ijtimoiy hayotning hamma sohalariga din, cherkov hukmronlik qilgan o‘rtalarda – e’tiqod, umid va muhabbat, ya’ni xudoga e’tiqod, uning shafqatiga umid va unga muhabbat asosiy fazilatlar, deb hisoblangan. Hozir ona-yurtimiz mustaqillik va demokratik yo‘ldan borib, bozor iqtisodiyoti sharoitida hayot kechirar ekan, ayniqsa, vatanparvarlik, milliy g‘urur fazilatlarini tadbirkorlik, o‘zaro manfaatdorlik, hamkorlik, sabr-toqat, osoyoishtalik, qanoatlilik fazilatlari bilan uyg‘unlashtirib borishni taqozo etmoqda.

Murakkab iqtisodiy sharoit chigalliklarini echishda axloqiy barkamollik, milliy urfatlarimizdan ma’naviy yuksaklik, madaniy-ma’rifiy merosimiz ta’sir etmasdan qolmaydi, albatta.

**Axloqiy munosabatlar** – ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismidir. Ijtimoiy munosabatlarning har qanday turi singari, axloqiy munosabatlar ham axloq me’yorlari bilan cheklangan, shaxs va jamiyat, kishilar o’rtasida aloqalar, bog’lanishlar tarzida mavjud. Shunga asosan axloqiy munosabatlar o‘z shakliga ko‘ra epizodik, ya’ni “halokatga uchragan odamga yordam ko‘rsatish” va turg‘un, oila, jamoa, guruh, mahalladagi odamlar bilan bo‘lgan munosabat turlariga bo‘linadi. Ammo axloqiy munosabatlar bu faqat aloqalar, bog’lanishlardangina iborat bo‘lmay, ayni paytda me’yoriy asosga ega bo‘lgan o‘zaro ta’sirni, kishining boshqa odamlar, jamiyat oldidagi burchlarini ham o‘z ichiga oladi.

Axloqiy munosabatlar, odatda, dastlab stixiyali, moddiy munosabatlar asosida shakllana boshlaydi. So‘ngra esa taraqqiy qilib moddiy munosabatlardan ajralib chiqib, mafkuraviy, g‘oyaviy, ma’naviy munosabatlar sohasiga kira boradi. Axloqiy munosabatlar kishilarning irodasidan tashqari paydo bo‘lib, axloq me’yorlarining qaror topishi, jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi jarayonida, albatta, kishilar ongi orqali o‘tadi. Demak, shunday xulosaga kelamiz, **axloqiy-madaniy munosabatlar** - jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan ijobiy hatti-harakatlar yig‘indisidir. Xalqimizning axloqiy madaniyatiga oid tarixiy merosini, demokratik qadriyatlarni, insonparvarlik, qonunchilik an’analarini o‘rganish xalqparvar, huquqiy, fuqarolik jamiyatini qurish hamda talabalarda axloqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning «**Mashg‘ulotlar jarayonida talabalarda axloqiy- madaniy munosabatni rivojlantirish metodikasi**» nomli ikkinchi bobida talabalarda axloqiy- madaniy munosabatni rivojlantirish mazmuni va jarayonining o‘zaro uzviyligi tizimli ravishda chuqur tahlil etilgan. Talabalarda axloqiy-madaniy munosabatni rivojlantirish metod va vositalari, axloqiy madaniy munosabatni rivojlantirishning tashkiliy-metodik tuzilmasi (nazariy modeli) va uning tarkibiy qismlari ishlab chiqilgan.


Axloqiy madaniyat – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo‘lida har tomonlama voyaga etkazish, unda ijtimoiy ong va xulq- atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonidir. Agar mamlakatimizda 30 yoshgacha bo‘lganlar aholi umumiy sonining 60 foizini tashkil etishini hisobga olsak, talaba-yoshlar axloqiy madaniyatini shakllantirish masalasi qanchalik dolzARB ekanligi ayon bo‘ladi. Talaba-yoshlar guruhi axloqiy madaniyat rivojlantirilishi kerak bo‘lgan guruhning mustaqil va juda muhim qismini tashkil etadi. Ayrim holatlarda mazkur axloqiy madaniyat jamiyatga nisbatan marginal xususiyat kasb etadi, unda umumiy e’tirof etilgan xulq-atvor normalaridan chetlash holatlari kuzatilishi mumkin.

Axloqiy madaniyat jarayoni o‘qituvchi va talaba (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi) lar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan

hamkorlik jarayonidir. Axloqiy madaniyat jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg‘ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo‘ladi.

Axloqiy madaniyat jarayonida talabalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish g‘oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida talaba tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta’sirlarga nisbatan ma’lum munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta’siri talabaning ularga munosabatiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Rus tili darslarida talaba faoliyatini tashkil etishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli kechinmalarni qanday anglashi, baholashi, his qilishi, ulardan o‘zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur. Zero, axloqiy madaniyat ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi asosida kechadi.

Axloqiy madaniyatni rivojlantirish jarayonida talabaning onginigina emas, balki his-tuyg‘ularini ham o‘sirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun talabaning ongi, hissiyoti va irodasiga ta’sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e’tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o‘qituvchi rahbarlik qiladi. U talabalar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.



**1-rasm. Axloqiy tarbiya jarayonining umumiyligi mohiyati**

Demak, rus tili o‘qituvchisi talaba shaxsining tez rivojlanadigan davri – talabalik yillarda uning ongiga turli faoliyat (o‘qish, mehnat, ijtimoiy ishlar, o‘yin, sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta’sir etishi muhimdir. Aks holda xulq me’yorlari, axloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasida shaxs ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ta’sirga beriluvchan bo‘lib qolishi mumkin.

Axloqiy tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshirilib, uning tarkibiy qismlari ayni bir vaqtida, faoliyatning biror turi asosida namoyon bo‘ladi. Axloqiy tarbiya jarayonining umumiyligi quyidagi rasmida keltirilgan (1-rasm).

Ayni vaqtida yosh avlodni tarbiyalab voyaga etkazish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg‘otish;

b) talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatidan ogoh etish, chuqur bilim va tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, ularning ongini boyitish;

v) umuminsoniy axloq me’yorlari (odamiylik, kamtarlik, o‘zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat,adolatni yoqlash, insonparvarlik, axloqsizlikka nisbatan nafrat va hokazolar)ning mohiyatini anglash, talabalarda muomala odobi, yuksak madaniyatni qaror toptirishga erishish;

g) talabalarda axloq va axloqiy me’yorlarga hurmat ruhida yondashish hissi va fuqarolik tuyg‘usi, ijtimoiy burchga mas’ullikni qaror toptirish;

d) tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas’uliyatni tarkib toptirish;

j) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg‘usini shakllantirish, o‘zga millat va xalqlarni hurmat qilish, ularning huquq va burchlarini kansitmaslik tuyg‘usini qaror toptirish;

z) mustaqil davlat – O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rganish;

i) insonni oliv qadriyat sifatida qadrlash, uning sha’ni, or-nomusi, qadr-qimmati, huquq va burchlarini hurmat qilishga o‘rgatish va boshqalar.

Tadqiqotlarimiz jarayonida axloqiy tarbiya mazmuni shaxsning shakllanishiga qo‘yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darjasи, shuningdek, jamiyat mafkurasi g‘oyalari asosida belgilanishi aniqlashtirildi. Zamonaviy axoqiy tarbiya mazmunida quyidagi tamoyillar muhim ahamiyat kasb etishi belgilandi:

1. Axloqiy madaniyatni rivojlantirish maqsadining aniqligi. O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq respublikada amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan tarbiya maqsadi aniq belgilab olindi. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» g‘oyalariga ko‘ra axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi – erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo‘lgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat edi. Ushbu maqsadga erishish yo‘lidagi asosiy vazifa - bu shaxsda umumiy madaniyat unsurlari, ya’ni, shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, siyosiy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalashdan iborat.

2. Talabalar va kattalarning birgalikdagi faoliyati. O‘qituvchilarining talabalar bilan ma’naviy madaniyatini shakllantirishning eng yaxshi namunasini izlash, shu asosida tarbiyachi ishining hayotiy me’yor va qadriyatlarini aniqlash talabaning tarbiya jarayonidagi faolligini ta’minlashga olib keladi. Dunyoqarashi hali to‘la-to‘kis shakllanmagan talabalar uchun kattalarning hayotiy tajribalari, ularning shaxsiy namunalari tarbiyaviy ta’sir kuchiga ega.


3. O‘zini-o‘zi anglash. Axloqiy tarbiya insonda e’tiqod, demokratik qarashlar va hayotiy pozitsiyaning shakllanishiga olib keladi. Axloq mazmunining eng muhim unsurlaridan biri – bu insonning hayotiy o‘zini-o‘zi anglashi, uning o‘z shaxsiy

hayoti va faoliyatining sub'ekti sifatida e'tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotida fuqarolik, kasbiy va axloqiy o'zini-o'zi anglash jihatlari muhim ahamiyatga egadir.

4. Axloqiy tarbiyaning shaxsga yo'naltirilganligi. Mazkur g'oya ta'lim muassasasi amaliyotining markaziy nuqtasida tarbiyaviy ishlar dasturi, tadbirlar, ularning shakl, metod va vositalari emas, balki talaba turganligini anglatishga xizmat qiladi. Axloqiy tarbiya jarayonida uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, o'ziga xos xarakteri, o'z qadr-qimmatini anglash tuyg'ularini inobatga olinishi va rivojlantirilib borilishi zarur.

5. Ixtiyorilik. Tarbiyalanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiya g'oyalari mohiyatini qaror toptirish mumkin emas. Axloqiy tarbiya jarayoni, agar u oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o'zida ham talaba, ham o'qituvchi ma'naviyatining boyitilishiga xizmat qiladi. Agar tarbiyachi talabaning qiziqishi, faoliyati, o'rtoqlik va fuqarolik burchini anglash, mustaqillikka intilish tuyg'ularini ko'ra va anglay olsagina, uni irodali ekanligi ayon bo'ladi. Tarbiyalanuvchining irodali bo'lishi ta'minlangan sharoitda uning shaxsiga ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida samaraga erishiladi.

#### 6. Jamoa yo'nalishi.




**2-rasm. Axloqiy tarbiya tamoyillari**

Tarbiyaviy ishlar mazmunida jamoaga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish yotadi. Jamoa yordamida shaxsning har tomonlama kamoloti, uning dunyonи anglashi, uni to'laqonli talqin etish, insonparvarlik va o'zaro hamkorlik tuyg'ularini yuzaga kelishi va rivojlanib borishi kabi holat amalga oshiriladi. Axloqiy tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki talabaning yosh va psixologik shaxsiy xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o'rin tutadi (2-rasm).

Demak, ta'lim muassasasida talabalarni axloqiy tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo'lib, auditoriyadan va oliy ta'lim muassasasidan tashqarida amalga oshiriladigan axloqiy tarbiya ishlaridan holi vaqtida ular o'qituvchi yoki tyutorning ta'siri hamda nazoratidan uzoqlashadilar.

Talabalarga nisbatan ta’lim muassasasining ta’sirini susaytirmaslik maqsadida auditoriyadan, oliy ta’lim muassasasidan tashqarida va ta’til davrida ham axloqiy tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga alohida e’tibor beriladi. Ana shu maqsadda bir qator axloqiy tarbiyaviy ishlar olib boriladi. Axloqiy tarbiya jarayoni o‘zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi (3-rasm):



### 3-rasm. Axloqiy tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari

Axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida talabalarga Davlat Konstitutsiyasi, davlat haqidagi ta’limot, fuqarolik, oila, mehnat, xo‘jalik, ma’muriy, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma’nosini tushuntirish, ular ongiga ijtimoiy-axloqiy me’yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tushunchalarni singdirish, axloqiy munosabatlar mohiyati yuzasidan tasavvurga ega bo‘lishlarini ta’minalash, ularda axloqiy ong, shuningdek, axloqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, axloqiy madaniy munosabatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

